

TARBIYA TARBIYANING UMUMIY METODLARI

Davlatova Shaxrizoda Chori qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

pedagogika ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Tel raqami:+998 50 006 53 98

Annotatsiya: Ushbu maqola tarbiyaning umumiy metodlari mavzusini qamrab oladi. Unda tarbiyaning mohiyati, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tarbiya jarayonida qo'llaniladigan asosiy metodlar batafsil tahlil qilinadi. So'z bilan tarbiyalash (tushuntirish, suhbat, maslahat berish, hikoya qilish, muhokama), amaliy tarbiyalash (mashq, mehnat, o'yin, jamoaviy faoliyat), shuningdek, rag'batlantirish va jazolash metodlariga alohida e'tibor qaratiladi. Materialda har bir metodning ijobiy va salbiy tomonlari, qo'llanilish shartlari va samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi

Kalit so'zlar: Tarbiya, maqsad, shaxs, fazilat, milliy tarbiya, metod, ma'naviy axloqiy o'ng, xulq, atvori.

Аннотация: В данной статье рассматривается тема общих методов обучения. Подробно анализируются сущность, цель и задачи образования, а также основные методы, используемые в процессе обучения. Особое внимание уделяется речевому обучению (объяснение, беседа, консультирование, рассказывание, обсуждение), практическому обучению (упражнения, работа, игры, командная деятельность), а также методам поощрения и наказания. В материале рассматриваются плюсы и минусы каждого метода, условия использования и способы повышения его эффективности.

Ключевые слова: Воспитание, цель, личность, добродетель, национальное воспитание, метод, духовно-нравственное право, поведение, характер.

Abstract: This article covers the topic of general methods of upbringing. It

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

provides a detailed analysis of the essence, goals and objectives of upbringing, as well as the main methods used in the upbringing process. Particular attention is paid to verbal upbringing (explanation, conversation, advice, storytelling, discussion), practical upbringing (exercise, work, games, team activities), as well as methods of encouragement and punishment. The material considers the positive and negative aspects of each method, the conditions for its application and ways to increase its effectiveness

Keywords: *Upbringing, goal, personality, virtue, national upbringing, method, spiritual and moral right, behavior, character.*

Kirish: Taribiya deb tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy xislatlar va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yo'lida tarbiyaviy ta'sir etish jarayonidir. Bolalik va maktab yoshida shaxs tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri ostida tarkib topadi. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida muayyan programmaning, anglab olgan maqsadning mavjudligi bilan, ta'sir ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asoslab berilgan vositalari, formalari hamda metodlarning tasodif yoki stixiyali ta'sirlaridan ajralib turadi. Tarkib toptirishning psixalogik qonuniyatlarni bilishga tayangan, shuningdek bolaning individual xususiyatlarini bilishga tayangan, taqdirdagina hal etish mumkun.

Tarbiya metodlari

- 1.Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar
- 2.Faolyatni tashkil etish va ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari
- 3.Xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlari

Asosiy qism: Tarbiya metodlari haqida. Maqsad mazmun, shakl, va vositalari kabi tushunchalar tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beradi. Biroq tarbiya mohiyatini yoritishda o'ziga xos ahamiyatiga ega bo'lgan yana bir tushuncha ham mavjud, bu tarbiya metodlari tushunchasidir.

Tarbiya metodi yunoncha "metodos" - yo'l tarbiya maqsadiga erishishning yo'li degan ma'noni anglatadi. Bunda tarbiyalanuvchining ongi, irodasi, tuyg'ulari,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

va xulqiga ta'sir etish usullaridir. Metod - subyektning obyektga ta'sir ko'rsatish tarzi. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlari - bu tarbiyalanuvchining ongi, irodasi, tuyg'ulari, va xulqiga ta'sir etish usulidir. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan uslubni, ma'lum maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini hamda qonunyatlarini bo'lish maqsadida qandaydir vazifani hal etish uslubini bildiradi.

Tarbiyada shunday metodlar mavjudki, ular yordamida insondagi yashirin iste'dod, qobiliyat yuzaga keladi, muayyan sifatlari shakllantiriladi, xulq - atvordagi salbiy odatlar bartaraf etiladi. Metod turlari Suhbat. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy - axloqiy jihatidan shakllantirishda o'qtuvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usul hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning dolzarbliji, sinf o'quvchilariga mosligi, ularda ma'naviy axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatini hisobga olish kerak. Suhbatlarning mehnat, huquqiy, ekologik, iqtisodiy, va gigienik mavzularda tashkil etilishi ham ijobjiy natijalarni beradi. Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrlarini erkin ifo etishlari hamda mustaqil fikrleshga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qiladi Hikoya : O'quvchilar odatda hayot va turli adabiyotlardan olingan anniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar.

Ularga axloq me'yorlari, xulq o'tmishi, qahramonlar o'tmishi va jasorati, shuningdek tarix adabiyot va san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Suhbat ham hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda ular tushunadigan so'zlar vositasida adabiy tilda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir Namuna :O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaqin axloqiy sifatlarni ko'rishlari namuna olishlari nihoyatda muhimdir. O'quvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi ayniqsa yoshlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qtuvchi darsida va hayotda o'zini qanday tutishini, muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar. Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xili mavjud. Bular faoliyatda mashq qilish, mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgan.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Milliy tarbiyamiz o'zining boy uslubiy xazinasiga ega. Masalan "kechirishi" - tarbiyalanuvchiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish maqsadida uni yo'lga qo'yish xato. O'zbek xalqining o'z farzandlarida ijobiy fazilatlarni rivojlantirish, salbiy xulq atvorlarni bartaraf qilish maqsadida qo'llangan va qo'llanayotgan yo'l yo'riqlar, harakati tartiblari, tarzlari tizimidir. Tarbiya uzoq muddatli ko'p xususiyatlari, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o'rtaсидаги jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchida aniq maqsad asosida muayyan

sifatlar, ko'nikmalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Xulosa: Tarbiya jarayoni shaxsning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan murakkab va ko'p qirrali faoliyatdir.

Uning samaradorligi katta darajada qo'llaniladigan metodlarning to'g'ri tanlanishi va o'z vaqtida qo'llanilishiga bog'liq. Tarbiyaning umumiyligi metodlari turli-tuman bo'lib, ularni shartli ravishda so'z bilan tarbiyalash, amaliy tarbiyalash va ijobiy-salbiy ta'sir usullariga bo'lish mumkin. So'z bilan tarbiyalash metodlariga tushuntirish, suhbat, maslahat berish, hikoya qilish, muhokama va munozara kiradi. Bu metodlar o'quvchilarning ongiga ta'sir o'tkazish, ularning dunyoqarashini shakllantirish va axloqiy tamoyillarni singdirish uchun juda muhimdir. Samaradorlik uchun so'zlarni aniq, tushunarli va yoshga moslashtirish, shuningdek, o'quvchilarning fikrlarini, his-tuyg'ularini va tajribalarini hisobga olish zar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni 2020 - yil 23 - sentabr
- 2.Ibraimov X, Quronov M, "Umumiyligi pedagogika" Darslik - Toshkent 2023
- 3..Ibraimov X, Quronov M, Ibragimova D. "Pedagogika nazariyasi va tarixi" Sahhof 202